

24 yanvar 2022 yil.

28/4-14502 sonli shartnoma
Topografiya va geologiya ishlarini bajarish uchun

Toshkent shahri

“O‘ZGASHKLITI” Toshkent shahar filiali nomidan keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiluvchi, 05.01.2022 yildagi 4-sonli bosh ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Toshkent shahar filiali direktori I.A.Tadjibayev bir tomondan va MChJ "Axborot va pedagogika texnologiyalari Innovatsion markazi" nomidan keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi, NIZOM asosida harakat qiluvchi bosh direktor O.Z.Raxmatillayev ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAVZUSI

- 1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq «Pudratchi» «Buyurtmachi»ning texnik topshirig‘iga asosan «Yashnobod tumani Oqdaryo ko‘chasi 22-uyda joylashgan "Yashnobod kompyuter texnologiyalari" kasb-hunar kolleji» ob‘yektida topografiya, geologiya ishlarini bajarish majburiyatini oladi, buyurtmachi o‘z navbatida ushbu xizmatlar uchun xaq to‘lash va bajarilgan ishlarni qabul qilish majburiyatini oladi.
- 1.2. "Pudratchi" ishlarni mazkur shartnomada belgilangan shartlar va texnik topshiriq talablari asosida bajaradi.
- 1.3. Ishlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadigan kalendar rejada belgilangan muddatlarga (ilova №3) muvofiq bajariladi.
- 1.4. "Buyurtmachi" Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan ob‘ektni O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi 3-qismiga muvofiq shartnomani o‘z vaqtida G‘aznachilikdan ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.
- 1.5. "Buyurtmachi" tomonidan shartnomaning 3.2. bandiga muvofiq avans to‘lovi bo‘lgandan so‘ng "Pudratchi" 10 kun ichida texnik topshiriqda keltirilgan dastlabki ruxsat beruvchi hujjatlar bilan shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarishni boshlaydi.
- 1.6. "Pudratchi" shartnoma shartlarini bajarishda o‘zi bajarilmaydigan va maxsus tadqiqot ishlari talab qiladigan qismi yuzasidan "Buyurtmachi"ning oldindan yozma roziligini olmasdan sudpudrat shartnomalarini tuzish huquqiga ega.

2. SHARTNOMANI TUZISH, O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 2.1. Mazkur shartnoma taraflar o‘rtasida imzolangan vaqtdan kuchga kiradi va shartnoma majburiyatlarining to‘liq bajarilguniga qadar amal qiladi.
- 2.2. "Buyurtmachi" besh bank ish kunida ushbu shartnomani rasmiylashtirishi lozim. Agar shartnomani rasmiylashtirishga to‘sqinlik qiladigan holatlar aniqlansa, "Buyurtmachi" yozma ravishda "Pudratchi"ni ogohlantirishi kerak. Aks holda shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi.
- 2.3. "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma o‘z vaqtida rasmiylashtirilmaganda va shartnomaning 1.2 va 2.2. bandlari talablari buzilganda, "Pudratchi" ishlarni bajarish muddatini va ilmiy-texnik maxsulotni (keyingi o‘rinlarda "maxsulot" deb ataladi) chop etish muddatini uzaytirishga haqli.
- 2.4. Loyiha shartnomasida taraflarning kelishmovchiliklari yuzaga kelgan taqdirda 5 (besh) kun ichida chora ko‘rilib bayonnoma tuzilishi lozim.
- 2.5. "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma yoki buyurtma bekor qilingan taqdirda yozma ravishda ma‘lum qiladi hamda haqiqatda bajarilgan ishlar haqini to‘lab berishi shart, shuningdek ularni tugatish uchun tashkiliy xarajatlar bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarni qoplaydi.

3. SHARTNOMA SUMMASI VA HISOB-KITOB TARTIBI

- 3.1. Bajariladigan ishlar uchun to‘lov shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadigan shartnoma summasi bo‘yicha kelishuv bayonnomasiga (ilova №2) muvofiq: **22 856 673,00 (Yigirma ikki million sakkiz yuz ellik olti ming olti yuz yetmish uch) so‘m, shu jumladan QQS 2 981 305,17 so‘mni** tashkil etadi va "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ning hisob raqamiga o‘tkazib beradi.
- 3.2. "Buyurtmachi" shartnoma rasmiylashtirilganidan so‘ng 5 (besh) bank ish kunida shartnoma summasining 100% miqdorida to‘lovni amalga oshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.03.2021 yildagi №139-sonli "Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" qaroriga muvofiq).
- 3.3. Shartnoma summasidan ortiqcha bajariladigan va texnik topshiriqda nazarda tutilmagan ishlar bo‘yicha qo‘shimcha kelishuv tuziladi.
- 3.4. "Buyurtmachi" "Pudratchi" tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangan vaqtdan boshlab 10 (o‘n) bank kuni mobaynida bajarilgan ishlar uchun to‘lovni amalga oshiradi

4. ISHLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI

- 4.1. "Pudratchi" og‘zaki ravishda "Buyurtmachi"ni ishlar bajarilganligi haqida xabar qiladi.
- 4.2. "Buyurtmachi" bajarilgan ishlar topshirish-qabul qilish aktini imzolab, tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi va "Pudratchi"dan tayyor mahsulotni oladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Hisob vara-fakturalarning shakllari hamda ularni to‘ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to‘g‘risida Nizom"ga muvofiq "Pudratchi" tomonidan elektron hisob-fakturani rasmiylashtiradi.
- 4.3. "Pudratchi" tayyor mahsulotni ushbu shartnomaning 1 ilovasiga muvofiq taqdim etadi.
- 4.4. "Pudratchi" tayyor mahsulotni o‘rnatilgan tartibda berilayotgan mahsulotlar ro‘yxati - yuk xati (nakladnoy) asosida topshiradi.
- 4.5. Agar bajarilgan ishlar natijalarida shartnoma shartlari bilan nomuvofiqlik aniqlansa "Buyurtmachi" kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida dalolatnoma tuzadi va "Pudratchi"ga taqdim etadi. "Pudratchi" dalolatnomada ko‘rsatilgan kamchiliklarni o‘z mablag‘i hisobidan qisqa vaqt ichida bartaraf etishga va "Buyurtmachi"ga tuzatilgan maxsulotlarni taqdim etishga majburdir.
- 4.6. "Pudratchi" barcha ishlarni muddatidan oldin bajarishga haqli. Bu holatda "Buyurtmachi" ishlarni qabul qilib olishi va mazkur shartnoma shartlari asosida to‘lovni to‘liq amalga oshirishi lozim.
- 4.7. Shartnomaning 3.2 bandi talablari buzilganda, "Pudratchi" tayyor mahsulotni "Buyurtmachi"ga bermaslikka haqli

5. FORS-MAJOR XOLATLARI.

- 5.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra va yengib bo‘lmas kuch mavjud bo‘lgan taqdirda ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlari bo‘yicha javobgar emas (Urush e‘lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, yer qimirlashi, suv toshqini, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir).
- 5.2. Fors-major holati va oqibatlari davom etgan muddatda shartnomaning ham bajarish muddatlari mutanosib ravishda uzaytiriladi. Fors-major holatini tan olish uchun vakolatli davlat organining ma‘lumotnomasi va tomonlarning bir-biriga o‘z vaqtida xabar berishlari asos bo‘ladi.
- 5.3. Agar bartaraf qilib bo‘lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar bir-birini 10 (o‘n) kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, shartnomani bekor qilishi mumkin.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1. Agar texnik, texnologik va tashkiliy sabablar bo'lmasa xizmatlar ko'rsatish muddatini buzganligi uchun "Pudratchi" "Buyurtmachi" kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- 6.2. Ko'rsatilgan xizmatlar hakini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4% foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.
- 6.3. "Buyurtmachi" tomonidan ish natijalarini o'z vaqtida qabul qilmaslik yoki asossiz ravishda rad etganda "Pudratchi"ga tayyor maxsulot qiymatining 15% miqdorida jarima to'laydi.
- 6.4. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
- 6.5. "UZGASHKLITI" DUKdan olingan topografik materiallarning to'liq yoki qisman nusxasini ko'chirish, nusxa ko'paytirish va uchinchi shaxslarga topshirish faqatgina ishlab chiqaruvchining roziligi bilan amalga oshiriladi.
- 6.6. Topografik materiallarning O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga berish faqatgina qonun hujjatlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati asosida amalga oshiriladi.
- 6.7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 654, 695 moddalariga asosan taraflar shartnomaning bajarish jarayoni va olingan natijalarga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlari shart.
- 6.8. Mazkur shartnomada manfaatlari buzilgan taqdirda taraflar talabnoma taqdim etishga haqli. Talabnomani ko'rish muddati talabnomani olgan kundan boshlab 10 kundan oshmasligi lozim.
- 6.9. Nizolarni taraflarning muzokaralari yo'li bilan xal etish imkoni bulmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng, nizo belgilangan tartibda sudda hal etiladi.
- 6.10. Tomonlar o'rtasida mazkur shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplash yuzasidan yuzaga keladigan nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi yoki boshqa vakolatli sud tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi.

7. BOSHQA SHARTLAR.

- 7.1. "Buyurtmachi" loyiha oldi qidiruv ishlarini olib borish uchun yerning qismini ajratish hujjatlarini rasmiylashtiradi va qidiruv ishlari olib borish uchun hujjatlar taqdim etadi.
- 7.2. Alohida yer uchastkasida qidiruv ishlarini olib borish vaqtincha imkonsiz bo'lgan taqdirda (paxta va boshqa ekinlarni ekish, yerlarni yuvish, binolarni buzish va boshqalar) "Buyurtmachi" ushbu masalaga yechim tuzadi va "Pudratchi"ga ish boshlash to'g'risida xabar beradi. "Pudratchi" yuqoridagi sabablarga ko'ra ishni majburiy ravishda to'xtatib turishi va kalendar reja (ilova №3) bo'yicha ishni keyinga qoldirishga haqlidir.
- 7.3. "Pudratchi" ishlarni bajarishda belgilangan xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish va sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq harakat qilishi, ekologik muhitni saqlashga hissa qo'shishi shart.
- 7.4. Shartnomaning barcha bandlarini talqin qilish O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi va Fuqarolik kodeksi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 7.5. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxasi "Buyurtmachi"da, bir nusxasi "Pudratchi"da saqlanadi. Ikki nusxadagi shartnoma ham bir xil yuridik kuchga ega.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 8.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOSI:

«PUDRATCHI»

«O'ZGASHKLITI» Toshkent shahar filiali
Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi 2a uy,
Tel. 71 241-32-62, 71 241-29-52
x/r 20210000704489790001
TIF «Milliy bank» Olmazor filiali
Bank kodi: 00876 STIR: 206328965
IFUT: 71110

Toshkent shahar filiali direktori

I.A. Tadjibayev

M.O.

«BUYURTMACHI»

MChJ "Axborot va pedagogika texnologiyalari Innovatsion markazi"

Manzil: Mirobod tumani Yangi Zamon 3-tor ko'chasi 1-uy

Tel.: 71/205-89-89 71/203-20-03

x/r 20208000505032345001 Orient Finansi Bank

STIR: 306214930MFO: 011671FUT: _____

Bosh direktor

Rahmatilloev O.2 ✓

(Lavozimi, F. I. O., imzo)

M.O.

Shartnoma summasi bo'yicha kelishuv B A Y O N N O M A S I

Biz, quyida imzo chekuvchilar, «Pudratchi» "O'ZGASHKLITI" Toshkent shahar filiali nomidan, direktor Tadjibayev I.A. va «Buyurtmachi» MChJ "Axborot va pedagogika texnologiyalari Innovatsion markazi" nomidan bosh direktor O.Z.Raxmatilloev shartnomaning bahosi taraflar o'rtasida kelishib, quyidagi narx belgilandi: 22 856 673,00 (Yigirma ikki million sakkiz yuz ellik olti ming olti yuz yetmish uch) so'm, shu jumladan QQS 2 981 305,17. Yashnobod tumani Oqdaryo ko'chasi 22-uyda joylashgan "Yashnobod kompyuter texnologiyalari" kasb-hunar kolleji obekti bo'yicha topografiya, geologiya ishlarini bajarish


Bayonnoma «Buyurtmachi» va «Pudratchi» o'rtasidagi o'zaro hisob-kitob uchun asos bo'lib xizmat qiladi

«PUDRATCHI»

«BUYURTMACHI»


Toshkent shahar filiali direktori

 Tadjibayev I.A.



Bosh direktor
Rahmatilloev O.Z. ✓

(Lavozimi, F. I. O., imzo)



24.01.2022yil28/4-14502sonli shartnomaga
Ilova №3

KALENDAR REJA

MChJ "Axborot va pedagogika texnologiyalari Innovatsion markazi"ning buyurtmasiga binoan

Shartnoma bo'yicha ish turlari	Bajarish muddati	Hisob-kitob qiymati (so'm)
topografiya	Boshlang'ich to'lovdan so'ng 1 oy ichida	9 200 157,13
geologiya	Boshlang'ich to'lovdan so'ng 1 oy ichida	13 656 515,87
JAMI:		22 856 673,00

«PUDRATCHI»

«BUYURTMACHI»

Toshkent shahar filiali direktori

 Tadjibayev I.A.

M.O.



Bosh direktor
Rahmatilloev O.Z. ✓

(Lavozimi, F. I. O., imzo)

